ISSN: 3060-4613



| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

*Elektron nashr. 160 sahifa, 5-iyun, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Mizayeva Faroxat Odiljonovna** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Mizayeva Farokhat Odiljonovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
**Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich** – Doctor of Historical Sciences, Professor
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Iqim o‘zgarishi muammolari va “yashil ko‘nikmalar”ning rivojlanishi....14
**Abdurashit Karimovich Avliyaqulov**

TTJlardagi qizlarni qo‘llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish....18
**Xasanboy U. Abdusamatov**

Integrativ yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili....26
**Jalilov Nodirjon Azamatovich**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi....30
**G‘ayibova Nargiza Anorbayevna**

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari....33
**Hakimova Gulmira To‘xtatoshevna**

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari....37
**Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi**

Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o‘zbek tilining ta’siri....41
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников....44
**Умрихина Виктория Игоревна**

Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода....52
**Ахунова Умида Ойбековна**

Sun’iy intellektning ta’limga integratsiyasi: o‘qitish va boshqaruvdagi o‘rni....55
**Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi**

Buxorodagi jadidchilik harakatining o‘ziga xosligi va maktablardagi ta’lim tizimi....60
**Axrorov Ixtiyor Doniyorovich**

Inklyuziv ta’lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli....63
**Dadaboyev Jahongir Sherdil o‘g‘li**

Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход....67
**Сайфутдинова Насиба Нурматовна**

O‘yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o‘ziga xosligi....75
**Otasheva Lola Shoto‘rayevna**

Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari....78
**Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna**

Rivojlanishida nuqsoni bor bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta’limning o‘rni....81
**B. Xusniddinova**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish....85
**Zulaykho Samatovna Ro‘ziyeva**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi....89
**Xudaybergenova Nawrızbiyke Qanat qızı**

Sonlarni obrazlar bilan bog‘lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi....92
**Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna**

Methodology of Teaching English to Preschool Children....96
**Khurshida Tojimurodova**

Malaka oshirish jarayonida yo‘riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..100
**Ch. B. Nalibayeva**

O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari....103
**G‘aniyeva Sayyora Saidmurod qizi**

Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o‘rni....106
**Boymirzayeva Xurshida Sobirovna**

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari ........ 110
**Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li**

An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development.. 113
**Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna**

O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ........ 118
**Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi**

Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ........ 123
**Jo'rayev Ilhom Isxoqovich**

Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ........ 126
**Muxlisa Satriddinovna Muhitdinova**

Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi ........ 132
**Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li**

Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ........ 136
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi**

Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari ........ 139
**Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi**

Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni........ 143
**Jabborova Oltinoy**

Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati ........ 146
**Soliyev Umidjon Yulchivoyevich**

Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari ........ 150
**Uzaqov Nomozali Hamdamovich**

Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari ........ 153
**Z. M. Zarifova**

# O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILAR BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARI



G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala va munosabatlar katta o'rin egallaydi. O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, shaxs sifatida shakllanayotgan yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar bilan muomala va munosabatlarda har biriga individual yondashuv zarur. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, ular o'z-o'zlarini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilganidek, unchalik passiv jarayon emas.

**Kalit so'zlar:** jamoatchilik tarbiyasi, o'qituvchining yuqori kasbiy salohiyati, jamoa diqqat-e'tiborini qaratish, hamkorlik pedagogikasi, o'quvchi bilan hamkorlik munosabati.

**Abstract:** In the system of communication within pedagogical processes, the interaction between the teacher and the student plays a significant role. The teacher communicates with young children–individuals who are just beginning to enter life and shape their personalities. In interaction and communication with children, each individual should be approached personally. If the teacher and the student listen to each other, they also engage in self-education. Thus, the listening process is not as passive as many might imagine.

**Key words:** public education, teacher's high professional capacity, team attention focus, collaborative pedagogy, cooperative relationship with students.

**Аннотация:** В системе общения в педагогическом процессе значительную роль играет взаимодействие между учителем и учеником. Учитель общается с маленькими детьми – людьми, только вступающими в жизнь и формирующими свою личность. В процессе общения и взаимодействия с детьми к каждому из них следует подходить индивидуально. Если учитель и ученик слушают друг друга, они одновременно воспитывают самих себя. Следовательно, процесс слушания не так пассивен, как представляют многие.

**Ключевые слова:** общественное воспитание, высокая профессиональная компетентность учителя, сосредоточение внимания коллектива, педагогика сотрудничества, партнёрские отношения с учеником.

*Ilm dargohiga kirar ekansan,qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan,qotib qolgan turli eski urf-odatlardan,hirsdan,raqobatdan,ochko'zlikning quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor.*

***Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy***

## KIRISH

Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikr va g'oyalarning shakllanishiga imkon yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi, agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng foyda ko'radi. Bolalarga oliyjanob munosabat – insondagi eng yaxshi, olijanob fazilatlardan biri samimiylikdir. Deyarli har kuni ishlatiladigan bu so'zning ma'nosiga ko'pincha e'tibor bermaymiz. Aslida arab tilidan o'zlashtirilgan "samimiyat", "samimiy" so'zlarini o'zbekchaga tarjima qilganda "boshqalar gapini tinglaydigan, hamfikr bo'la oladigan, xabardor" degan ma'nolar chiqadi. Odob-axloqning yaxshilik deb nomlanuvchi turlaridan biri bo'lgan samimiylik katta tushunchadir. Samimiyat kishilarning o'zaro munosabat va muloqotida namoyon bo'ladi. Har kuni qancha odamlar bir-biri bilan muloqatda bo'ladilar.

Ochiqko'ngillik va beg'araz chin yurakdan muloqotga nima yetsin? Oliyjanob insonlar kattayu kichikka baravar, ularning ko'nglini olishga intiladi, haqiqatni yoqlaydi, ma'rifatga intiladi, o'zini hurmat qiladi. Bolalar

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

bilan munosabat jarayonida biz to'g'risözlik, oqko'ngillilik, bag'rikenglik, bilimdonlik, beg'arazlikdan foydalansak, biz tarbiya berayotgan yosh avlodda oliy fazilatlar shakllanib boradi. Bu o'rinda o'qituvchi hamkorlik pedagogikasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi shart. Hamkorlik pedagogikasi an'anaviy o'qitishdan farqli ravishda bola bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.F. Lomov faoliyatni tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat sub'yektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. Lekin bu mavhumlashtirish nihoyatda muhim bo'lishiga qaramay, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilingan. A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlarning faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularning muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirish vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

Bu muammoga boshqacha yondashgan A.A. Bo Dalev esa o'qituvchi bilan o'quvchining munosabati ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish uchun qulaylik yaratishi zarur deb hisoblaydi. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning shaxs sifatidagi xususiyatlari, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishlari shart. Yuqoridagi fikrlarga qaramay, o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning turli hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hali to'liq hal bo'lmagan. Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko'nikmalarining yo'qligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V.Ya. Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarning shakllanishida o'qituvchi bilan talaba hamkorligining rolini aniqlash edi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida o'quv vaziyatini talaba shaxsining rivojlanishidagi "yaqin kamolot zonasi"nigina emas, balki "pertseptiv rivojlanish zonasi"ni ham yaratadigan tarzda loyihalash mumkin.

V.Ya. Lyaudis o'quv vaziyati tarkibidagi to'rtta o'zgaruvchan holatni ko'rsatadi: tashkiliy o'quv jarayonining mazmuni (uning xususiyati, o'quvchi o'zlashtiradigan faoliyat dasturi, egallanadigan bilish faoliyatining turlari); ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirish: bir bosqichdan boshqasiga o'tish tartibi; talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri va hamkorlik tizimi; ta'limdagi o'zgaruvchan omillarning o'zaro aloqasining takomillashuvi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlikda ishlash tamoyili bola shaxsini chuqur bilishga asoslanadi. Hamkorlik pedagogikasi – bola shaxsidagi o'ziga xos xususiyatlarni, individuallikni saqlagan holda, uning intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'ekti, o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi – sub'ekt, o'quvchi esa ob'ekt deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi pedagogik jarayonning sub'ektlari sifatida tenglashadi va hamkorlik pedagogikasi jarayoni shakllanadi. Ular o'zaro hamdo'st, hamishtirokchi, hamdard, ham boshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar o'rtasida, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar, tashkilotlar, rahbarlar, ota-onalar hamda jamoatchilik o'rtasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- o'quvchi shaxsini chuqur bilish;
- o'quvchi shaxsiga insoniy yondashish;
- jamoatchilik tarbiyasi;
- o'qituvchining yuqori kasbiy salohiyati;
- maktabga jamoa e'tiborini qaratish.

Hamkorlik pedagogikasining konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

- o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini shakllantirish;
- o'quvchida ijobiy emotsional qoniqish hosil qilish;
- maktab ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- muloqot va mehnat qilish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish;
- o'quvchilar bilan birgalikda mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontirish;
- o'quvchiga yordam berish g'oyasi;
- har bir o'quvchi sinf ishida erkin qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- bolalar ishini baholash, ya'ni rag'batlantirish.

Darsni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarga tavsiyalar:
- o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash;
- sinfda ijobiy emotsional (hissiy) muhit yaratish;
- darsga ishchanlik kayfiyatida kirishish;
- darsga mas'uliyat bilan yondashish;
- o'quvchilar bilan hamkorlik qilish;
- zamonaviy usullar asosida dars o'tish;
- o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodkorlik, ya'ni muntazam o'z ustida ishlash.

O'quvchilarning fikrlari: Menga ishoning. Mendan umid qilsangiz bo'ladi. Meni tushuning. Meni seving. Menga olijanoblik qiling. O'z foydangiz uchun mendan foydalanmang. Meni kichkina deb o'ylamang. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining shakllari:
- o'qituvchi – sinf;
- o'qituvchi – kichik guruh;
- o'qituvchi – katta guruh;
- o'qituvchi – o'quvchi;
- o'quvchi – o'quvchi (juftlikda ishlash);
- kichik guruh – kichik guruh;
- kichik guruh – sinf.

Hamkorlikda o'qitish – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka holdagi o'quvchilar yoki butun sinf bilan samarali hamkorlikni tashkil etishi, shu bilan birga o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishi bilan tavsiflanadigan, instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi keng qo'llaniladigan metoddir. Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi besh xususiyatga ega:
1) o'quvchilar birgalikda umumiy topshiriq yoki faoliyat ustida ishlaydilar, bu esa guruhli ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi;
2) o'quvchilar 2–5 a'zodan iborat kichik guruhlarda birgalikda ishlaydilar;
3) o'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan, ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qiladilar.

## XULOSA

O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo'ladi. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan mas'uliyatli va javobgardir. Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:
- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma. Toshkent, 2016-yil.
2. Tojiev M., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent, 2011-yil.
3. Shermuxamedov S., Ochiliev A. Madaniyat va sivilizatsiya. Farg'ona, 2000-yil.
4. Arzimatova, I. (2019). Art industry development of society and society culture. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 129–134.
5. G'aniyeva S.S. Historical analysis of the spiritual moral education of students based on theories of values. "Ekonomika i sotsium", 2024, 166–168-betlar.
6. G'aniyeva S.S. Qadriyatlar nazariyalari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining tarixiy tahlili. Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali, 2024-yil, 5-son, 411–414-betlar.
7. Sayyora G'aniyeva, Shodmonova Shaxlo. Ta'limning shaxs kamolotidagi o'rni. Maktabgacha ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil, 745-bet.
8. Sayyora Ganieva. A teacher's moral and ethical standards are the key to his success. Web of Teachers: Inderscience Research, Volume 3, Issue 2, February 2025.
9. Sayyora G'aniyeva. O'qituvchining axloqiy sifatlarining ta'lim jarayoniga ta'siri. Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi. Globallashuv sharoitida pedagogik mediata'limni rivojlantirish mexanizmlari: muammolari va yechimlari, 14–15 fevral 2025-yil, 259–262-betlar.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.